

## **XUSUSIY TELEKANALLARDA REALITI-SHOULARNING OMMALASHUVI (“O‘ZBEKISTON GOT TALENT” DASTURI MISOLIDA)**

**Xurshidabonu Olimovna NAZAROVA**

mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

khurshidabonu.nazarova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0006-9862-0583>

### **Annotatsiya**

Maqolada “Got Talent”ning o‘zbekcha talqinining yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan. Realiti-shoudagi o‘ziga xos rang-baranglik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

**Tayanch so‘zlar:** realiti-shou, O‘zbekiston Got Talent, franshiza, iste’dodlar shousi, raqqoslar, superxotira, rang-baranglik, millatlar totuvligi.

## **ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ РЕАЛИТИ-ШОУ НА ЧАСТНЫХ ТЕЛЕКАНАЛАХ (НА ПРИМЕРЕ ПРОГРАММЫ «УЗБЕКИСТАН GOT TALENT»)**

**Хуршидабону Олимовна НАЗАРОВА**

независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

khurshidabonu.nazarova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0006-9862-0583>

### **Аннотация**

В статье исследуются достижения и недостатки узбекской версии проекта «Гот Талант» (Got Talent). Рассматриваются специфические особенности и разнообразие, присущие данному реалити-шоу.

**Ключевые слова:** реалити-шоу, Узбекистан Гот Талант, франшиза, шоу талантов, танцоры, суперпамять, разнообразие, межнациональное согласие.

Ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli format sifatida joriy etilgan “Got Talent” – “Iste’dodlar bor” shousini tashkil etish yuqori darajada mas’uliyatni, katta moliyaviy va ijodiy resurslarni talab qiladi. Avvalo, mazkur loyiha mamlakat nomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli, uning mazmun va sifati milliy imijga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday ko‘lamdagi teleloyihani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik jihozlangan sahna, professional ijodiy jamoa, shuningdek, yetarli bilim va amaliy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, loyihaning asosiy muvaffaqiyati haqiqiy iste'dod egalarini jalb qilish, ishtirokchilarni xolis saralash hamda har bir bosqichda yanada takomillashgan va ta'sirchan chiqishlarni namoyish etish imkoniyatini yaratish bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda hakamlar hay'atining professionallik darajasi, ularning to'g'ri tanlanishi va ishtirokchilarni adolatli baholab borishi shuning jozibadorligi hamda auditoriya ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

“O‘zbekiston Got Talent” loyihasining saralash bosqichlari Toshkent shahridan Qoraqalpog‘iston Respublikasigacha bo‘lgan turli hududlarda tashkil etildi. Unda raqqos va raqqosalar, xonandalar, illyuzionistlar, fristaylerlar, rassomlar, mentalistlar, sportchilar, ekvilibrillar, fenomenal xotira sohibi bo‘lgan ishtirokchilar va boshqa turli yo‘nalish vakillari qatnashdi. Ishtirokchilar nafaqat tomoshabinlar, balki hakamlar hay'atini ham hayratda qoldirishga intildi.

Biroq loyiha oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qay darajada erishilgani, haqiqiy iste'dod egalari o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olgani, shuningdek, g‘oliblarni aniqlash mezonlarining shaffofligi va xolisligi masalalari alohida tahlilni talab qiladi. Quyida FTV telekanali tomonidan amalga oshirilgan mazkur loyiha ilmiy-tanqidiy yondashuv asosida atroflicha tahlil qilinadi.

Filologiya fanlari doktori Amrullo Karimov “Televideniya format tushunchasi” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Jahon amaliyotida mutaxassislar televideniya nafaqat mafkura yaratiladigan, uni shakllantiradigan dargoh, qurol sifatida, balki turli ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ommaga yetkazadigan, ma'rifat tarqatadigan media tipi sifatida qarashadi. Teleefir – turli ijtimoiy-siyosiy doiralarning, katta mulk va kapital egalarining davlat va hukumat bilan, xususiy biznes tarafdorlari bilan xalq manfaati va siyosiy partiyalar nuqtayi nazarlari to‘qnash keladigan dargoh hisoblanadi. Shu sababdan ularning har biri televideniyaning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o‘zlashtirishga, unda tashviqot sirlarini yaxshiroq egallashga, hatto ijodiy jamoalarni qo‘lga olishga harakat qiladi” [1].

Rossiyalik olim Pyotr Erikovich Shultsman “Realiti-shoularda jozibadorlik fenomeni: san’atshunoslik tadqiqotlari tajribasi” nomli dissertatsiyasida mazkur

shou dasturlarini atroflicha tahlil qilgan. Unda ta'kidlanishicha, "realiti-shoular ekran madaniyatidagi jozibadorlikni belgilovchi asosiy tendensiyalarni aniqlash uchun muhim material vazifasini bajaradi. Ushbu turdagi dasturlar mazmuni televideniye taraqqiyotining hozirgi bosqichida ekran asarining mavjud bo'lish shakllari hamda uning tomoshabinga ta'sir mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, realiti-shoularning ko'ngilochar qiymati ko'p jihatdan televideniyeining tezkorlik xususiyati bilan bog'liq. Loyiha ishtirokchilarini muntazam kuzatib borayotgan tomoshabin ("Dom-2", Big Brother) ekrandagi voqealarni qahramonlar hayotining uzluksiz davom etayotgan jarayoni sifatida qabul qiladi.

Shuningdek, ayrim loyihalarda "haqiqiy voqelik" sifatida talqin qilinayotgan sahnalar sun'iy ravishda shakllantirilgani kuzatiladi. Masalan, "Nikohga xiyonat" ("Brachnoye chtivo") dasturida qahramonlar va voqealar o'rtasidagi ayrim bog'lanishlarning real hayotda yuz berishi ehtimoldan yiroq ekani qayd etiladi. Muallif fikricha, produserlar tomonidan "haqiqiy tuyg'ular" sifatida taqdim etilayotgan yoshlar o'rtasidagi munosabatlar jamoatchilik hamda tanqidchilar orasida turli munozara va xavotirlarni keltirib chiqarmoqda" [2].

S. Urazovanning "Realiti-shou: modellashtirish xususiyatlari va tamoyillari" nomli kitobida ham zamonaviy televideniyeidagi mazkur yo'nalish ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Tadqiqotni o'tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

FTV telekanali tomonidan tomoshabinlarga taqdim etilgan "O'zbekiston Got Talent" shousi aqlli, jasur, irodali va iste'dodli ishtirokchilari bilan qisqa vaqt ichida o'z muxlislariga ega bo'ldi. Loyihada hakamlilik vazifasi afsonaviy teatr va kino aktyori Bobur Yo'ldoshev, musiqiy prodyuser Ibrohim Ahmedov, saralash bosqichlarida professional dizayner va aktrisa Shahzoda Muhammedova, yarim final hamda final bosqichlarida esa aktrisa Setora Olimjonovaga topshirildi.

Dastlab loyiha boshlovchisi sifatida taniqli bloger LiiL Xurramov faoliyat olib bordi. Biroq unda professional boshlovchilik tajribasi yetarli darajada namoyon bo'lmadi. Jumladan, pafosli nutqlarda ham, ishtirokchilardan intervyu

olayotgan jarayonlarda ham ayrim soʻzlarning noaniq talaffuz qilinishi, nutqdagi takrorlar va xatolar eʼfir sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Aslida bunday holatlarda muallif, rejissyor yoki muharrir tomonidan qayta yozib olish va montaj jarayonida ortiqcha takrorlarni qisqartirish maqsadga muvofiq boʻlar edi. Shuningdek, boshlovchining artikulyatsiya va nutq texnikasi ustida yanada koʻproq ishlashi zarurligi seziladi. Bundan tashqari, rus tilidagi ayrim soʻz va iboralarning nooʻrin yoki grammatik jihatdan nomuvofiq qoʻllanishi ham ayrim jumalarning tabiiy chiqishiga toʻsqinlik qilgan.

“...Dima aka, yesli manga nimadir boʻlsa, oilamni boqasiz. Tushundingizmi? ...Sizda oʻzi talantlar soni koʻpmi yoki faqat bittami?...” [3] “Eng qiziqarli qahramonlar, eng qiziqarli talantlar aynan Got Talent Uzbekistanʼda boʻladi. ...Men oʻylayapman, bular yoʻq degan javobni olishadi deb. ...Sizning yoshingiz 1 da boʻladimi yoki 70 da, bizga buning ahamiyati yoʻq...” [4].

Mazkur jumalarda til meʼyorlari va uslubiy yaxlitlik yetarli darajada saqlanmagan. Nutqda oʻzbek va rus tillarining nooʻrin aralashuvi, grammatik jihatdan nomukammal jumla qurilishi hamda sunʼiy ifodalar kuzatiladi. Bu holat boshlovchilar matni ustida ssenariy muallifi va muharrir tomonidan yetarli darajada ishlanmaganini koʻrsatadi.

Shunga qaramay, LiiL Xurramovning olib borish uslubi, oʻzini erkin tutishi va ishtirokchilar bilan tabiiy muloqot qila olgani tomoshabinda ijobiy taassurot uygʻotadi. Agar u nutq madaniyati, artikulyatsiya hamda adabiy oʻzbek tili ustida muntazam ishlasa, kelajakda professional darajadagi boshlovchilardan biriga aylanishi mumkin.

Til masalasiga eʼtibor qaratilganda, shevada hamda boshqa tillarni aralashtirib gapirish holatlari shou davomida hakamlar faoliyatida ham koʻp kuzatildi. Bobur Yoʻldoshev intervyularida, aksariyat hollarda oʻzbek ishtirokchilari bilan muloqot jarayonida ham rus tilidan keng foydalangan.

Jumladan, u quyidagi fikrni bildiradi: “...Man rus tiliga oʻtaman. Chunki bizni tomoshabinlarimiz orasida rus tilida gapiradigan odamlar ham bor. Yoʻq emas. Po etomu pereydu na russkiy...” [5].

“O‘zbekiston Got Talent” loyihasida millati, tili, dini va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, o‘z iste’dodini namoyish etishni istagan barcha ishtirokchilarga teng imkoniyat yaratildi. Shou davomida turli millat vakillari o‘z milliy liboslarida qatnashdi hamda o‘zlari istagan tilda fikr bildirish imkoniga ega bo‘ldi. Mazkur rang-baranglik realiti-shouning yanada jonli, tabiiy va samimiy chiqishiga xizmat qildi. Bu holat O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil-inoqlik va hamjihatlikda yashayotganining amaliy ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Boshqa millat vakillariga murojaat qilayotganda, ularning chiqishlarini baholayotganda boshqa tilda muloqotga kirishishni qoralamaymiz. Biroq, o‘zbek tilida efirga uzatilayotgan dasturda o‘zbek o‘zbekka rus tilida gapirishini ijobiy baholash qiyin. Bu – Davlat tiliga nisbatan hurmatsizlik!

Ajoyib rollari bilan o‘zbek muxlislari qalbidan joy egallagan, ko‘p yutuqlarga erishgan Bobur Yo‘ldoshev ozroq harakat qilsa, hech qanday muammosiz o‘z fikrlarini o‘zbek tilida, badiiy va chiroyli ifodalab bera oladi. Shou tashkilotchilari va ijodkorlar tomonidan shunday talab qo‘yilishi kerak. Agar ona tilimizni o‘zimiz hurmat qilmas ekanmiz, boshqalardan buni talab ham qila olmaymiz. Shouning keyingi mavsumlarida hakamlar davlat tili va badiiy til me’yorlariga e’tiborliroq bo‘lishi tavsiya etiladi.

Shouning birinchi fasli O‘zbekistonda ajoyib qobiliyatga ega iqtidorli, intiluvchan va o‘rnak olishga arziydigan insonlar ko‘pligini ko‘rsatdi. Dasturlar hayrat va g‘urur uyg‘otishi bilan birga noyob qobiliyat egasi bo‘lgan boshqa insonlarni ham ruhlantiradi. Bundan tashqari, har bir qatnashchi haqida chiroyli lavhalar va intervyular tayyorlandi. Tomoshabinlar ishtirokchilarning qobiliyatlariga lol qolish bilan birga, hayot qiyinchiliklari va sinovlariga qaramay, o‘zida kuch topib, faqat oldinga intilayotganiga guvoh bo‘lishdi hamda ularga muxlislik qilishdi.

Yana bir e’tiborli jihati, tanlovning har bir sonida milliylik ruhi yaqqol sezilib turdi. Saralash bosqichlarida ayrim ishtirokchilar o‘z dasturlarini milliy liboslarda namoyish etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi. Keyingi

bosqichlarda esa rang-barang yorqin liboslar, chiroqlar yordamida yaratilgan bejirim sahna bezaklari sharqona go‘zallikni yanada yorqin aks ettirdi.

Hal qiluvchi bosqichlarning jonli efirda uzatilgani hamda tomoshabinlarning bosh hakam sifatida jalb etilgani ma’lum darajada xolislikni ta’minlab, shou atrofidagi turli bahs-munozaralarning keskinlashib ketishining oldini oldi. Shu bilan birga, bu yondashuv superfinal bosqichida haqiqiy iste’dod egalari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishiga ham xizmat qildi.

Superxotira egasi bo‘lgan 6 yoshli Shukrona Komiljonova ko‘pchilikni hayratda qoldirgan bo‘lsa, o‘smir qiz Shirin Azizova kuchli ovozi bilan jahon yulduzlari qo‘shiqclarini mahorat bilan ijro etib, sahnani larzaga keltirdi. Inson imkoniyatlarining cheksiz ekanini Maqpal Jumabayeva “Tovus” raqsi orqali, Umidjon Vahobov bir vaqtning o‘zida bir necha cholg‘u asboblarini chalib, Xayrulla Qurbonboyev qadimiy Xorazm raqsini jonlantirib namoyish etdi. Ikki oyog‘i yaxshi ishlaymaydigan Albert Petrosyan zamonaviy raqs va mashqlarni mahorat bilan bajarishi, 11 yoshli gimnastikachi Jansulu Tatlimurodovanning hayratlanarli plastikasi tomoshabinlarda katta taassurot uyg‘otdi.

Shuningdek, Sug‘diyona zarblari hamda Moranbon jamoasining chiqishlari tomoshabinlarga estetik zavq bag‘ishladi. Mazkur chiqishlar ko‘p millatli va bag‘rikeng O‘zbekistonda barcha fuqarolar teng imkoniyatlarga ega holda erkin yashayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarga oid ko‘plab nufuzli tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilmoqda. Shuningdek, jonli efirda ishlash bo‘yicha ham muayyan tajriba shakllandi. “O‘zbekiston Got Talent” dasturi ijodkorlari ham mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana oldi. Insonda zavq va ilhom uyg‘otadigan, quvonch ulashadigan, hayratlantiruvchi mazkur loyiha yanada rivojlantirilib, an’anaviy tarzda davom ettirilsa, turli yoshdagi minglab iste’dodli insonlarni ruhlantirishga xizmat qilardi. Shu sababli, bunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, shou davomida davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ovoz berish jarayonining shaffofligini ta’minlash maqsadida to‘plangan ovozlarning umumiy miqdori, ishtirokchilarning olgan ovozlari hamda ular o‘rtasidagi farq haqida aniq ma’lumot berib borilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bundan tashqari, ishtirokchilarning chiqishlarini bevosita sahnada kuzatayotgan tomoshabinlar sonini ko‘paytirish ham muhim masalalardan biridir. Ayrim sonlarda hakamlar ortidagi o‘rindiqlarning bo‘shligi emotsional muhit va tomoshabin reaksiyalarining tabiiyligini pasaytirgani seziladi.

“O‘zbekiston Got Talent” g‘olibligi eng munosib iste’dod egasiga nasib etdi. G‘olib 100 million so‘m mukofot bilan bir qatorda, xalqaro sahnada O‘zbekiston sharafini himoya qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ldi. Biroq superfinalning boshqa ishtirokchilari, xususan, 2- va 3-o‘rin sohiblarini ham rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu esa ishtirokchilarning sahnaga faqat g‘alaba uchun emas, balki o‘z iste’dodi va sevimli mashg‘ulotlarini mehr bilan namoyish etish uchun chiqishiga ham xizmat qilgan bo‘lard.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov A. Televideniya format tushunchasi //O‘zbekiston matbuoti, 2024. – № 4–5.
2. Шульцман П.Э. Феномен зрелищности в программах реалити-шоу: опыт искусствоведческого исследования.  
<https://www.dissercat.com/content/fenomen-zrelischnosti-v-programmakh-realiti-shou-opyt-iskusstvovedcheskogo-issledovaniya>.
3. FTV telekanali, “O‘zbekiston Got Talent” ko‘rsatuvining 1-soni, <https://youtu.be/70pZnvyJEsA>
4. FTV telekanali, “O‘zbekiston Got Talent” ko‘rsatuvining 2-soni, <https://youtu.be/2S56-q4qdEQ>
5. FTV telekanali, “O‘zbekiston Got Talent” ko‘rsatuvining superfinali, <https://youtu.be/osWvaYCVwj4>

